O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 5 - fevral 59-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona viloyatida bo‘sh turgan davlat mulki obyektidan samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi “Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 279-son qaroriga muvofiq So‘x tumani hokimligining 2023-yil 22-noyabrdagi 324/1-son murojaatiga asosan tumandagi bo‘sh turgan bino va inshootlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda viloyat hokimining ayrim qarorlariga o‘zgartirish kiritish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. So‘x tumani hokimining So‘x tumani “Devayron” MFY hududida joylashgan umumiy maydoni 1,59 gektar, bino va inshootlar maydoni 950,5 kvadrat metrni tashkil etgan bo‘sh turgan bino-inshootlarni belgilangan tartibda “E-auksion” elektron savdo xususiylashtirish dasturiga kiritish orqali sotish bo‘yicha taklifi ma’qullansin.

3. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Saliyev), So‘x tumani hokimligi (S.Sayidmusayev) tegishli mas’ullar bilan birgalikda:

qisqa muddatda mazkur davlat mulki obyektini savdolarga chiqarish bo‘yicha xususiylashtirish komissiyalarini tuzish va ularning faoliyatini belgilangan muddatda tashkil etish;

davlat mulki obyektini joyiga chiqqan holda har tomonlama puxta o‘rganib, xususiylashtirish komissiyasining tegishli xulosalarini shakllantirish;

davlat mulki obyektini joylashgan yer uchastkasi bilan birgalikda yagona

mulkiy majmua (tegishli xulosalarga asosan) sifatida belgilangan tartibda baholangan qiymatda “E-auksion” elektron savdo maydonchasi orqali ommaviy savdolarga chiqarish choralarini ko‘rsin.

4. Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (A.Yuldashev) tadbirkorlik subyektlarini elektron raqamli imzo olishi va o‘tkaziladigan ommaviy savdolarda faol qatnashishiga ko‘maklashsin.

5. Viloyat teleradiokompaniyasi va “Farg‘ona haqiqati” gazetasi tahririyatiga ommaviy savdolar orqali davlat tasarrufidan chiqariladigan davlat aktivlari to‘g‘risidagi ma’lumot va e’lonlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**